

**O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining**  
**2024-yil davomida korrupsiya faktlariga doir murojaatlarni**  
**ko‘rib chiqish natijalari haqida**  
**HISOBOTI**

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi markaziy apparatiga korrupsiyaga oid 848 ta murojaat kelib tushgan shundan, 14 ta aloqa kanali, 26 tasi “Ishonch telefoni”, 276 tasi pochta, 262 tasi vazirlikning elektron pochta, 258 tasi Prezident virtual qabulxonasi, 12 tasi vazirga murojaat portali tushgan bo‘lsa, 134 tasi shaxsiy qabulda qabul qilingan.

Mazkur murojaatlarning 407 tasi qanoatlantirildi, 412 tasiga huquqiy tushuntirish berilgan, 16 tasi anonim deb topilgan va 13 tasi ko‘rmasdan qoldirilgan.

Hududlardagi Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari xodimlari tomonidan jami 511 ta murojaat kelib tushgan. Ushbu murojaatlarning 315 tasi edo.ijro.uz, 44 tasi maxsus aloqa kanallari, 68 tasi ijtimoiy tarmoqlar va 84 tasi davlat organlari va tashkilotlari orqali kelib tushgan.

Jismoniy va yuridik shaxslar o‘z murojaatida eng ko‘p rahbar xodimlar faoliyatidan norozilik (1347 ta), moddiy yordam va ustamalar (1523 ta), ishdan bo‘shatish (157 ta), huquqbuzarliklarning oldini olish (320 ta) bilan bog‘liq masalalarni ko‘tarishgan.

Jismoniy va yuridik shaxslarni murojaat qilishga majbur etayotgan muammolarni o‘z vaqtida bartaraf qilish hamda to‘g‘ridan-to‘g‘ri tunu kun murojaat qilishi uchun “Vazirga murojaat” portali tashkil etildi (1172 ta murojaat kelib tushgan).

Murojaatlarda ko‘tarilayotgan masalalarni hal etish bo‘yicha barcha darajadagi rahbarlarning hisobotini har oyda eshitib borish amaliyoti yo‘lga qo‘yilib, tashkilot rahbarlariga aniq topshiriq va ko‘rsatmalar berildi, “Yo‘l xarita” va chora-tadbirlar dasturi ijroga qaratilib, murojaatlarni o‘z vaqtida hal etish, ularni ko‘rib chiqishda sansalorlik, rasmiyatchilik va loqayd munosabatda bo‘lish holatlariga yo‘l qo‘ymaslik hamda buzilgan huquqlarni tiklashning barcha zarur choralarini ko‘rish fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlari sifatida qaralishi haqida barcha darajadagi rahbarlar bilan kafolat xatlari (majburiyatnoma) rasmiylashtirildi.

**Korrupsiyaga qarshi kurashish va  
huquqiy nazorat boshqarmasi boshlig‘i**



**A.Yudashev**